

PSIXOLOGIYA TERMINOLOGIYASIDA GIPONIMIYA HODISALARI

Jovbo'riyeva Saodat O'ktamovna

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

ГИПОНИМИЯ В ТЕРМИНОЛОГИИ ПСИХОЛОГИИ

Жовбуриева Саодат Уктамовна

*Преподаватель Термезского государственного
педагогического института*

HYPONIMY IN PSYCHOLOGICAL TERMINOLOGY

Jovbo'riyeva Saodat O'ktamovna

Teacher of Termiz State Pedagogical Institute



E-mail:

saodatjovboriyeva@mail.com

Tel: +99897 840 80 88

Orcid: 0009-0001-3047-
7040

Annotatsiya: Mazkur maqola hozirgi zamon tilshunosligining semantik maydonidagi muhim masalalardan biri bo'lgan giponimiya hodisasini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada giponimiya tushunchasining tilshunoslikka kirib kelishi va uning xususiyatlari haqidagi nazariy qarashlar keltirilib o'tilgan. Tilshunoslikning ahamiyatli sohalaridan biri bo'lgan terminologiyaning psixologiya sohaviy terminologiyasida giperonim va giponim hodisalarining uchrashi misollar bilan dalillab o'tilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, giponimiya, giperonim, giponim, tur-jins, terminologiya, termin, psixologiya terminologiyasi.

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию гипонимии — одного из важных вопросов в семантической области современного языкознания. В статье представлены теоретические подходы к понятию гипонимии и ее характеристикам в лингвистике. Рассмотрены примеры проявления гиперонимии и гипонимии в терминологии психологии, которая является важной отраслью языкознания.

Ключевые слова: лингвистика, гипонимия, гипероним, гипоним, род-вид, терминология, термин, терминология психологии.

Annotation: This article is dedicated to the study of the phenomenon of hyponymy, which is one of the important issues in the semantic field of modern linguistics. The article presents theoretical views on the introduction of the concept of hyponymy into linguistics and its characteristics. Examples of the occurrence of hypernym and hyponym phenomena in the terminology of psychology, which is one of the significant fields of linguistics, are provided and demonstrated.

Keywords: linguistics, hyponymy, hypernym, hyponym, genus-species, terminology, term, psychology terminology.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION. Hozirgi zamon tilshunosligi semantik maydonida keng tadqiq qilinayotgan jihatlardan biri bu giponim va giperonim hodisasidir. Terminologiyaga oid bir qator tadqiqot ishlarida sohaviy terminlar o'rtasidagi giponim va giperonim terminlarni uchratishimiz mumkin.

Psixologiya terminologiyasidagi giponim va giperonim terminlarni tadqiq qilishdan oldin, mazkur tushunchalar haqidagi nazariy qarashlarni keltirib o'tishni joiz deb topdik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Giponimiya

leksemasi ilk bor Jon Rey, Karl Limniy, Charlz Darvin kabi botanik hamda biologik olimlar tomonidan tadqiq qilingan o'simlik, hayvon sistematikasidagi jins-tur munosabatlarida qo'llanilgan. Keyinchalik bu jihat til birliklariga nisbatan ham tadbiq qilina boshlangan. 1968-yilda ingliz tilshunosi J.Layonz tomonidan *giponimiya*, *gipironim*, *giponim* leksemalari jins-tur munosabatini ifodalovchi birlik sifatida tilshunoslikka olib kirildi [4].

Giponimiya hodisasi fransuz tilshunosi V.G.Gak, rus tilshunoslari Yu.Stepanov, A.A.Ufimseva, L.A.Novikov, M.V.Nikitinlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan.

Leksemalararo semantik munosabatning yana bir turi giponomiya (aniqrog'i, gipo-giperonomiya), ya'ni jins munosabatidir. Giponimik munosabatda giperonim (jins) va giponim (tur) sifatida farqlanadi. Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko'pgina ma'noni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy leksemasi, dominantasi sifatida namoyon bo'luvchi lug'aviy birlik hisoblanadi.

Giponim esa ma'lum jins turining nomini hamda o'zining semantik tarkibida impilisit tarzda jins ma'nosini ham ifodalovchi, semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy bo'lgan lug'aviy birlik hisoblanadi. Giponim va giperonim orasidagi aloqa mantiqiy bog'liqlikka asoslangan hisoblanadi. Bu esa obyektiv borliqdagi umumiylik tushunchasi bilan bog'liqdir [3].

Maydon iyerarxiyasining murakkab qurilmasida giperonimlar xalqa vazifasini o'taydi. Ular o'rtasida subordinatsiya kuzatiladi, ya'ni kichikroq narsalar o'zidan kattaroq narsalarning ichiga darajama-daraja kirib boraveradi. Paradigma ichidagi har bir leksema giponimlik mavqeyiga ega bo'ladi. O'z navbatida har bir giponim bir qancha leksemalarni bir yerga jamlay oladi va u jamlangan guruh ichida boshqalariga nisbatan giperonim bo'lib qoladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ot, fe'l, sifat, son, olmosh, ravish giponimlari mustaqil so'z turkumi giperonimiga, bog'lovchi, ko'makchi, yuklama giponimlari yordamchi so'z turkumi giperonimiga, undov, taqlid, modal giponimlari oraliqdagi so'zlar giperonimiga birlashadi. Mustaqil so'z turkumi, yordamchi so'z turkumi, oraliqdagi so'zlar

birlashib so'z turkumlari giperonimiga tobe bo'ladi. So'z turkumlari o'z navbatida, gap bo'laklari, so'z birikmasi giponimlar qatoriga o'tib grammatika giperonim tarkibiga kiradi [2].

Sohaviy terminologiyani o'rganishga bag'ishlangan bir qancha tadqiqot ishlarida sohaviy terminlar o'rtasidagi giperonim va giponim hodisalari o'rganilib chiqilgan. Misol uchun O.Ahmedovning soliq-bojxona terminlari, G.Ergashevaning rus va o'zbek tillaridagi psixologiya terminlarini o'rganishga bag'ishlangan ishlarida mazkur soha terminlaridagi giponimiya hodisasini turli-tillarda chog'ishtirib o'tgan. Terminologiyada giponimiya hodisasi kuzatilishining bir qator ahamiyatli jihatlari bor. Ular:

Terminologiyada tizimlilik – giponimiya hodisasi orqali terminologiyada turli tushunchalar o'rtasidagi munosabatni aniqlashga yordam beradi va bu vaziyat ilmiy hamda texnik soha terminologiyasida tizimlashtirishda ahamiyatlidir. Ayniqsa aniq sohalar hisoblangan biologiya, botanika soha terminologiyalarida terminlarni klassifikatsiya qilish uchun juda ahamiyatlidir.

Aniqlik – giponimlar yordamida ma'lum bir soha terminologiyasidagi tushunchalar aniqroq ifodalanadi.

Semantik aloqalarni yaratish – giponimiya tilni yanada boyitadi va so'zlar o'rtasidagi semantik maydon orasida bog'lanishlarni ko'rsatadi. Bu tilshunoslikda, so'zlarning qanday bog'lanishi va ular o'rtasidagi munosabatni tushunishga yordam beradi.

Murakkab tushunchalar yaratish – giponimiya o'z navbatida terminologiyada kompleks tushunchalarni yaratishga yordam beradi. Misol uchun psixologiya terminologiyasidagi "*buzilish*" giperonimining *ruhiy buzilish*, *aqliy buzilish*, *jismoniy buzilish* kabi giponimlari mavjud bo'lib, bu jarayon ilm-fan, soha terminologiyalarida murakkab tushunchalarning ortishi va ularni chuqurroq tahlil qilishga turtki beradi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Yuqorida keltirilgan qarashlar va misollarga asoslangan holda giperonim va giponim hodisasini o'zbek psixologiya terminlari o'rtasida tadqiq qilishni o'rinli deb hisobladik va quyidagi leksemalar o'rtasida giponimiya hodisasi uchrashiga guvoh bo'ldik.

Psixologiya giperonimining giponimlari – *parapsixologiya, patopsixologiya, pedagogik psixologiya, rivojlanish psixologiyasi, maxsus psixologiya, bolalar psixologiyasi, oila psixologiyasi* va h.k;

Rivojlanish bosqichi giperonimining giponimlari – *bolalik davri, o‘smirlik davri, yoshlik davri, qarilik davri*;

Psixologik buzilish giperonimining giponimlari – *shizofreniya, bipolyar buzilish, obsessive-kompulsiv buzilish, post-travmatik buzilish*;

Tadqiqot metodlari giperonimining giponimlari – *eksperimental metod, so‘rovnoma metodi, korrelyatsion tadqiqot*;

Temperament giperonimining giponimlari – *sangvinik, xolerik, flegmatik, melonxolik*;

Hissiyot giperonimining giponimlari – *qahr, g‘azab, quvonch, nafrat, dard, tashvish*;

Kognitiv jarayonlar giperonimining giponimlari – *diqqat, yodlash, fikrlash*;

Defektologiya giperonimining giponimlari – *maxsus psixologiya, reabilitatsiya, gipotetik pedagogika, psixopedagogika*.

Sensor sezgilar giperonimining giponimlari – *ko‘rish, eshitish, hidlash, ta‘m sezish, tegish*;

Nutq giperonimining giponimlari – *noverbal nutq, verbal nutq, egosentrik nutq*.

Tovushsiz nutq giperonimining giponimlari – *mimika, pantomimika, daktiologiya*;

Rivojlanish giperonimining giponimlari – *kognitiv rivojlanish, emotsional rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, xulqiy rivojlanish*;

Parapsixologiya giperonimining giponimlari – *telepatiya, psixokneziya, prekognitsiya, spiritualizm*;

Stenik hislar giperonimining giponimlari – *baxt, tinchlik, o‘ziga bo‘lgan ishonch, xursandchilik, motivatsiya*;

Shartli refleks giperonimining giponimlari – *och qolish, chanqash, eshitish, ko‘rish, tam sezish, hid sezish*.

Yuqorida keltirib o‘tilgan misollar o‘z navbatida o‘z ichki birliklarida giperonim va giponimlarni tashkil qilishi mumkin. Misol uchun G.Ergasheva temperament giperonimining giponimi hisoblangan sangvinik, xolerik, melanxolik, flegmatik giponimlarini giperonim tarzida ham ishlatib o‘tilishi mumkinligi haqida o‘z qarashlarini bergan. Masalan; **xolerik** giperonimining giponimlari – *qo‘pol, cho‘rtkesar, betgachopar, qo‘pol, o‘zini tuta olmaydigan, jizzaki*; **sangvinik** giperonimining giponimlari – *irodasiz, beqaror*; **melanxolik** giperonimining giponimlari – *pismiqlik, odamovi*; **flegmatik** giperonimining giponimlari – *sustkash, loqayd* [1].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili psixologiya terminlari o‘rtasida giperonim va giponim leksemalar ko‘p miqdorda uchraydi va ularning aksariyati ham giponim va giperonim vazifasida kelish holatlari tez-tez uchrab turadi desak xato bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Ergasheva G. Rus va o‘zbek tillari psixologiya terminlarining leksik-semantik xususiyati. Fil.f.f.d. diss. – Toshkent. 2008. – 140 b.
2. Eshmo‘minov A. O‘zbek tili korpuslari uchun taksonomik va meronomik munosabatli leksemalar lingvistik bazasini shakllantirish. Monografiya. –Termiz. 2023. – 250 b.
3. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: “Tafakkur avlodi”, 2023 – 544 b.
4. Новиков Л.А. Семантика русского языка. – М.: Высшая школа, 1982. – С.241-242.

